Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317606

The text contains a system of language facilities functioning in related proposals of the text.

A) extracts - the most common type of work on the training, scientific literature. They fix for future use important places from a textbook, a book, a journal article, a brochure, text. Usually write out individual provisions, facts, digital, other actual and illustrated material.

B) abstracts - the type of record at reading, which allows to generalize material, will spell out its essence in short formulations, revealing all composition. The abstracts can be simple and concise (include only basic provisions), as well as complex and complete basic, secondary provisions). They must flow out one from the other. Some texts can be written in the form of quotes. The basis for the compilation of texts is the logical structure of the text.

C) Inference is the conclusions derived from one or more judgments, that is, logical actions on individual thoughts. In its pure form, the conclusions are extremely rare in the text. Reading, we constantly come to conclusions - the conclusions of various species that are products of this type of activity [2; 308].

References

1. *Galperin I.R.* Text as an object of linguistic research. Moscow, 1981.
2. *Maslyko E.A.* Handbook of the teacher of a foreign language. Minsk, 1997.
3. *Perkas S.V.* Organization of individual reading in high school secondary school / / Foreign languages in school. № 3, 1998.
4. *Rogova G.V.* Methods of teaching a foreign language in high school. Moscow, 1991.
5. *Shakhova N.I.* From the ability to read to the ability to speak. Moscow, 1972.

EKSTREMIZM VA TERRORIZM – MILLIY XAVFSIZLIKKA TAHDID VA UNGA QARSHI KURASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O’RNI VA AHAMIYATI

Abdullayev Tursunboy Yaxshibayevich
TDIU Andijon fakulteti dotsenti
Muhammadaliyev Husniddin Ahliddin o’g’li
TDIU Andijon fakulteti
BIA ta`lim yo’nalishi 1- bosqich talabasi
Abduvoitov Azizjon Abdunabi o’g’li
TDIU Andijon fakulteti

Published: 24.05.2025

Cite this article: Abdullayev Tursunboy Yaxshibayevich, Muhammadaliyev Husniddin Ahliddin o’g’li, Abduvoitov Azizjon Abdunabi o’g’li (2025). Ekstremizm va terrorizm – milliy xavfsizlikka tahdid va unga qarshi kurashda jamoatchilik nazoratining o’rni va ahamiyati. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317606

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

BHA ta`lim yo’nalishi 1- bosqich talabasi

Azaldan, tinchlik-osoyishtalik insoniyat uchun tengsiz ne'mat bo'lib kelmoqda. Chunki birinchi galda osuda hayot, yaratuvchan mehnat va farovonlik, umuman, barcha ezgu maqsadlarning ro'yobi eng avvalo shu ne'matga bog'liq. Ammo azaldan yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik kabi nisbiy kuchlar bo'lganidek, inson hayotiga rahna soluvchi ofatlar ham mavjud. Ulardan biri diniy ekstremizm va terrorizmdir.

Diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungiday tahdid solmagan. Shunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylanadi. Bu baloyu ofat o'tgan asrning so'nggi o'n yilligi va XXI asrga kelib o'zining jirkanch qiyofasini namoyon eta boshladi.

Hozirda diniy ekstremistik va terrorchi tashkilotlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun xalqlar o'rtasida birinchi navbatda millatchilik va diniy ayirmachilikni keltirib chiqarish va shu yo'l bilan bir davlatda yashayotgan turli millat vakillari o'rtasida milliy, diniy ixtilof va nizolarni vujudga keltirishga urinmoqda. Diniy ekstremizm, aqidaparastlik, g'oyavandlik va narkobiznes, OITS kabi o'tgan asrning ikkinchi yarmida insoniyatga tahdid sola boshlagan illatlarning XXI asrga ham o'tganligi sog'lom fikrli insonlarni haqli ravishda o'ylantirmoqda. Shu bilan birga IShID nomi bilan atalgan terrorchilik harakatining mudhish xatti-harakatlari esa keng jahon jamoatchiligini tashvishga solmoqda. Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadlarni ko'zlash kabi holatlar ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga islom dinini niqob qilib, manfur ishlarini amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirrib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda.

Ekstremizm tahdidlari transmilliy xarakterga ega bo’lib, u o’z xavfining ko’lami bo’yicha butundumyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Ekspertlarning xulosalariga ko'ra, so'nggi 10 yil ichida dunyo iqtisodiyoti ekstremizm va terrorizmdan 583 trillion AQSh dollari miqdorida zarar ko'rgan bo'lsa, 15 yil ichida 100 mingdan ziyod begunoh insonlar terrorchilik hujumlari qurboni bo'lgan. (M. Mirziyoyev, "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" 399-b.).

Haqiqatdan ham keyingi vaqtlarda qo'shni davlatlarda in qurib olgan diniy ekstremistik oqimlarning nog’orasiga o'ynayotgan fukarolarimiz ayniqsa yoshlar orasida ham afsuski uchrab turibdi. Mana shunday sharoitda oila, mahalla, ta'lim

muassasalari, davlat tashkilotlarining hamjihatlikdagi faoliyati muhim ahamiyatga egadir.

Yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlariga oila-mahalla-ta'lim muassasasi tizimining ayrim hududlarda etarli darajada faoliyat ko'rsatmayotganligi, shu bilan birga ayrim yoshlarning ishonuvchanligi, birdaniga va hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo'lishga harakat qilishi, ilmiy tilda aytganda maksimalizm kabi ma'naviy-ruhiy omillarni alohida ajratib ko'rsatish lozim. Nopok kimsalarning "Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan alohida, har kimga ham nasib qilavermaydigan sharafli ishga qo'l urgan bo'lasan, kerak bo'lsa, sen millat, din, insoniyatning haloskoriga aylanasan!" degan g'oyalarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga alohida e'tibor berrilayotganini ko'rsatadi.

Ayrim yoshlar va ayollarning o'ziga xos ruhiy holatlaridan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida ustalik bilan foydalanishga harakat qilayotgan ayrim buzg'unchilar ularni o'z safsatalariga ishontirib, aldashga urinmoqdalar. Bilimi yetarli darajada bo'lmagan ba'zi bir fuqarolar internetda berilayotgan turli axborotlarga ishonib qolmoqdalar. Vaholanki, bu kabi ma'lumotlarning mutlaqo noto'g'ri ekanini kech anglamoqdalar. Ekstremistlar fuqarolarni guruhga qabul qilishda o'ziga xos usullardan foydalanadilar. Hammaga ma'lumki, inson chindan ham erkin va ozod shaxs. U shaxs atvoriga turli usullar bilan ta'sir qilish mumkin. Usullar odamning tabiatidan, avtobiografiyasidagi ba'zi epizodlardan, o'ziga xos holatdan, maqsadga yo'naltirilgan harakteridan, deylik, bo'lajak terrorchining fikri o'zgaruvchanligi, beqarorligidan, ular hamkorlikka chaqirilgandagi kayfiyatidan kelib chiqib tanlanadi.

Mafkuraviy kurashlar keskinlashgan bugungi kunda yoshlar qalbida ona Vatanga, boy tariximizga, milliy va diniy qadriyatlarimizga, ota-bobolarimizdan meros – muqaddas dinimizga bo’lgan munosabatni qaror toptirish, ularni har qanday zararli g'oyalar tuzog'iga ilinib qolishlaridan asrash maqsadida mafkuraviy immunitetni hosil qilish zamon, davr talabdir. Biroq bu ish bir zumda, oson amalga oshiriladigan ish bo'lmay, murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Bunda har bir kishining faollig'i, omilkorligi talab etiladi. Uning amalga oshirilishi esa Vatanimiz salohiyatini yanada oshiradi, kelajagi buyuk davlat barpo etishni ta'minlaydigan va insonlarning e'tiqodini mustahkamlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Bunday urinishlarning zamirida, eng avvalo, iqtisodiy manfaatdorlikning yotishi aniq. Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkobiznes, milliy ayirmachilik kabi kuchlar faoliyatida ham buni kuzatish mumkin.

Ularning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Dindor musulmonlarning islohotchi davlatga bo'lgan ishonchini yo'qotish, demokratik jamiyatni obro'sizlantirish, barqarorlikni, milliy va millatlararo totuvlikni buzish;
- Ommabop, jozibador, asossiz da'vatlar orqali, baqiriq-chaqiriq, shovqin-suronlar solish bilan andishali, mehnatkash, bag'rikeng xalqimizni yo'ldan ozdirish, ayniqsa, hali ongi yaxshi shakllanmagan yoshlarimizning aqliga, taqdiriga hukmron bo'lib olish;
- Aholi o'rtasida "haqiqiy va soxta" dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshiliklar chiqarish orqali millatlararo totuvlikka rahna solish;
- O'zlarini chin musulmon, din uchun kurashuvchi, deb hisoblaydigan jangarillarning yangi avlodini vujudga keltirish;
- Bizni goh dinsiz, dahriy deb, goh davlatlarni islomlashtirishning yashirincha tarafdori qilib ko'rsatish orqali musulmon va nomusulmon mamlakatlar jamoatchiligi orasida O'zbekiston haqida ko’nglini shovitishga urinish;
- Islom sivilizatsiyasi bilan boshqa sivilizatsiya o'rtasida yangi qarama-qarshiliklar keltirib chiqarish;
- Omma ongida din barcha muammolar hamda ziddiyatlarni hal qilish vositasi degan tasavvurni qaror toptirishga urinish va boshqalar.

Yuqorida aytib o'tilgan hamda boshqa diniy ekstremistik oqimlarni birlashtiruvchi umumiy jihati - ularning xatti-harakatlari zo'ravonlikka, terrorga asoslanganligidir. Terrorchilik amaliyoti dunyoning ko'pgina mamlakatlarida yashirin yoki ochiq qo'llanib kelindi va hozir ham qo'llanmoqda. So'nggi yillarda xalqaro terrorizm bilan diniy ekstremizmning birlashuvi xalqaro xavfsizlikka, alohida olingan mintaqalar va mamlakatlardagi tinchlik va osoyishtalikka jiddiy tahdid solmoqda, hech bir aybsiz kishilar hayoti va sog'ligi uchun xavf tug'dirmoqda. Shuning uchun umumilliy maqsad - milliy g'oyani xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan chuqur idrok etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, milliy g'oya va fuqarolik jamiyati barpo etish buyuk maqsadlarimiz yo'liga g'ov bo'layotgan diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm kabi kuchlarga qarshi kurashning muhim omili va ma'naviy negizi bo'lib xizmat qiladi. Bu borada fuqarolik jamiyati instituti - mahalla fuqarolari yig'inlari, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, jamoat tashkilotlari va fondlar, nodavlat, notijorat tashkilotlar, mustaqil ommaviy axborot vositalarining o'rni ham beqiyosdir. Din niqobi ostidagi ekstremizm, terrorizmga qarshi kurashda ularning faoliyatini kuchaytirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunda yillar, asrlar sinovida toblanib, ko'pni ko'rgan, bugun erkinlik havosidan nafas olib yashaytgan, o'z qadr-qimmatini, insoniy sha'nini, ne-ne ulug' zotlarning vorislari ekanini, o'zligini anglagan, milliy g'urur va iftixorini tiklab, xalqaro maydonda o'ziga munosib o'rin egallab borayotgan, o'z kuchi va ertangi kuniga

ishongan, o'z yurti, o'z farzandlarining kelajagi farovon bo'lishiga intilayotgan bizning xalqimizni hech qanday kuch to'xtatolmaydi.

Insoniylik sifatini butunlay yo'qotgan, tinch aholiga jabr-sitam, zulm tahlikasini solib turish muddaosiga aylangan qora kuchlar dunyoning qaysidir burchagida hali ham bor ekan, hamma-hammamiz ogoh va uyg’oq bo'lishimiz, terrorizmga qarshi hamma bab-baravar kurashishi kerak. Chunki qayerda bo'lmasin terrorizm xarakati roy bersa, zarracha olamgarchiligi, mehr-oqibati bor insonni bezovta qiladi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, hozirgi davrda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda huquqiy va tashkiliy-normativ masalalar qo'shimcha vazifalar ustuvor deb belgilandi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'rganish olib borildi:

- Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning huquqiy-normativ asoslarini takomillashtirish ko'rsatkichi;
- Boshqa davlatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashning huquqiy asoslarini kengaytirish;
- Xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm, terrorizm va ularni moyillashtirishga qarshi kurash sohasida axborot hamda tajriba almashish.
- Markaziy Osiyoda aksilteror strategiyasini oshirish uchun hamkorlikdagi sayi harakatini birgalikdagi harakatlar rejasi doirasida muvoffiqlashtirishi kabilar. (qarang: SH.Mirziyoyev, Yangi O’zbekiston strategiyasi 415-416 b).

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, zamonaviy voqelik inson qalbi va ongi uchun bo’lgan kurashlarning yangidan yangi usul va vositalarining ko’payib borayotgani, ayniqsa, bu borada din omilidan foydalanishga urinishlarda yaqqol namoyon bo’lmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda insonlarning bunday zararli, ta’bir joiz bo’lsa manfur ofatlardan asrab avaylash barchani yanada xushyorlikka, ehtiyotkorlikka, har jihatdan aql idrok bilan ish tutishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “O’zbekiston” nashriyoti, 2023.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. T.: “O’zbekiston” nashriyoti, 2021.

3. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. T.: “Sharq” nashriyoti, 2013.

4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olim va odam, din va ilm. T.: “Hilol-Nashr”, 2019.

5. G’oyibnazarov Sh. Islom terorizmga qarshi. T.: “O’zbekiston” NMZU, 2021.